

BAHOUDDIN NAQSHBAND

DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabalari

Tojiyeva Asila Abdimannon qizi

Musurmonova Rayhona Hamid qizi

Annotatsiya Ushbu maqolada Naqshbandning hayoti va ijodi ,ta'lismoti ,ilmiy faoliyati ,tassavufdagi o'zining yuksak manaviy say harakatlari,Naqshbandiy tariqatining tamoyillari ,tarixiy merosi, tarbiyaviy usullari, Naqshbandiya tariqatining ijtimoiy faoliyati haqidagi fikr va mulohazlar keng tarzda yoritilgan.

Абстрактный В этой статье широко освещаются жизнь и деятельность Накшбанди, учение, научная деятельность, его высокие духовные подвиги в суфизме, принципы, историческое наследие, образовательные методы ордена Накшбанди, а также мнения и комментарии об общественной деятельности ордена Накшбанди.

Abstract In this article, Naqshband's life and work, teachings, scientific activities, his high spiritual endeavors in Sufism, the principles, historical heritage, educational methods of the Naqshbandi order, and opinions and comments about the social activities of the Naqshbandi order are widely covered.tasavvuf,

Kalit so'zlar: Tariqat ,ruhiy rivojlanish ,ichki poklik ,Naqshbandiylik ta'lismoti ,Insoniy fazilatlar ,ruhiy yetuklik ,ruhiy muvozanat ,Naqshbandning saboqlari ,Naqshbandiya va ilm-fan .Falsafiy nutqai nazar .

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Bahouddin Naqshband haqida o'zining bir nechta nutqlarida va maruzalarida gapirgan. Naqshbandiy nafaqat diniy,balki madaniy va ilmiy merosning buyuk, namoyondasi sifatida ta'kidlangan.Prezidentimiz ,Bahouddin Naqshbandni O'zbekistonning buyuk manaviy va ilmiy shaxslaridan biri sifatida yuksak baholaydi. Mirziyoyevning nutqlarida Bahouddin

Naqshbandning tasavvufiy falsafasini kengroq tarqatish, uning ruhiy va manaviy, ta'limotlarini yosh avlodga yetkazish, zarurligi ko'rsatilgan. U Naqshband merosini o'rganish va targ'ib qilishni jamiyatning ma'naviy rivojlanishidagi muhim bir qadam deb biladi .[1] Bahouddin Naqshbandiy 1318 -yilda Buxoroda tug'ilgan. Bahouddin Naqshbandning bolaligidan boshlab diniy ta'lim olishga katta e'tibor qaratilgan. Diniy bilimlarni va o'zining ota-onasidan, atrofidagi shaxslardan, diniy olimlar va olimlardan olgan. Naqshband yoshligida Quronni Karimni yoshligidan o'rganib, tavsir va hadislar bilimlarga ega bo'lgan. Bahouddin Naqshbandiy bolalikdagi ilmi diniy ta'lim bilan birgalikda axloqiy jihatdan ham shakllangan. U zot faqat diniy bilim bilan cheklanib qolmagan, u tasavvuf ilmini ham chuqr o'rganadi, va ma'naviy kamolot yo'lida o'zini rivojlantirishga harakat qilgan. Bahouddin Naqshbandiy doimo diniy hayotni va tassavufni birlashtirishga intilgan. U zot tasavvuf olamining buyuk namoyondalaridan biri bo'lgan. Uning falsafasi diniy ta'lim bilan birgalikda ijtimoiy hamda axloqiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.[2] Uning falsafasi, qalbni poklash, nafsn yengish, Allohga yaqinlashish, jamiyatdaadolatni ta'minlash asosiy qadriyatlarni o'zida mujassam etadi. Bahouddin Naqshbandiyning tasavvufiy g'oyalari, asosan ruhiy poklanish va qalbni tozalashga qaratilgan. Uning falsafasida eng muhim tamoyil - "sahv" (nafsn tozalash)dir. Sahv Nashqbandiyalikda nafaqat xatolardan saqlashni anglatadi, balki insonni ichki dunyosini tozalash, balki insonning ichki dunyosini tozalash barcha yomon fikr va istaklardan qochish va faqat Allohn yod etishga qaratilgan bir holatdir. Naqshbandning falsafasidagi yana bir muhim jihat - zikr (Allohn eslashedir). Zikr nafaqat til bilan, balki qalbni Allohga bo'ysundirish orqali amalga oshiriladi. Bugungi kunda Naqshbandning falsafasi yanada dolzarblashgan. Dunyo miqyosida turli xil ijtimoiy va diniy mojarolar mavjud bo'lsa-da, Naqshbandning ta'limotlari, jamiyatni axloqan tozalash, insonlar o'rtasida tinchlik vaadolatni o'rnatish uchun muhim vositadir.[3] Bahouddin Naqshbandning deyarli butun umri Buxoro va uning atrofidagi qishloqlarda sufiylik bilan o'tgan. U ikki Marta Haj qilgan. U judayam g'aribona hayot kechirgan uning asosiy mehnati kimxobga (gul) solish bilan kun ko'rgan. Bahouddin

Naqshbandiyning birinchi ustozи yani piri-Xo'ja Muhammad Boboyi Samosiy edi.Bu keksa bir Bahouddin Naqshbandning tarbiyasi bilan shug'ullanishni o'rribosarlaridan bo'l mish Amir Sayyid Kulolga topshirdi.U tariqat bobida bilgan barcha bilimlarini o'rgatib shogirdga ijozat beradi .Bahouddin Naqshbandning falsafaga bag'ishlangan bir necha asarlari bor .Ulardan "Qulub al-Qulub" , "Fuzuyat", "Hikmat al -Ihsan" kabilardur.Naqshbandiylikda sabr va tavakkal juda muhim ahamiyatga ega.U o'zining asarlarida insonni nafaqat jismoniy, balki ruhiy jihatdan ham sinovlarga tayyor turishga undaydi ,har qanday vaziyatda Allohgа ishonish va suyanishni tavsiya qiladi. Bugungi kunda ham Naqshbandiy tariqatining falsafasi va g'oyalari zamonaviy jamiyatda ham o'z kuchini yo'qotmagan.Ichki zikr va ruhiy poklanishga bo'lgan yondashuv ,zamonaviy dunyoning murakkab va tartibsiz sharoitlarida insonlarning ichki tinchlikka erishishiga yordam beradi.[3]

Xulosa qilib aytganda Bahouddin Naqshbandiy ta'limoti o'zgacha bir yo'l - yo'riqdur.Uning izlanishlari,talimotlari ,hozirgi kunda jam o'z ahamiyatini yo'qotmagan va insoniyat uchun juda katta foyda keltirmoqda .Koplаб insonlar hozirgi kunda stress bilan tashvishlar bilan yashashadi,Nashqbandiylikda ta'limotida esa insonni ruhan poklanishi ichki tinchlikka erishish go'yalari ilgari surilgan va insonlar uchun qimmatli bir maslahat sifatida o'z kuchini ko'rsatmoqda.Naqshbandiyning hayoti, faoliyati ,izlanishlari,talimoti orqali insonlar o'rtasidaadolat ,axloqiy qadriyat,tenglik ,yaxshilik kabi hislatlar shakllanmoqda.Bahouddin Nashqbandning ta'limotlarida Sabr ,Zikr ,tinchlik,adolat,umid ,amaliy hayot ,ruhiy poklanish kabi tushunchalarning har biriga alohida ta'rif berilgan.Uning ta'limotlarida asosiy talab qalbni dunyo g'uborlaridan tozalash,inson o'z nafsi bilan kurashib ruhda charog'bonlik topish usullari ishlab chiqilgan .Hozirgi kunda insonlar qalbida muhabbat urug'i mavjud ,lekin ,dunyoviy aloqalar tufayli ,ular rivojlanmay olgan.Naqshbandiylik talimotining vazifasi esa o'sha muhabbatni yuzaga chiqarmoqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Bahouddin Naqshbandning maqbarasi "tiklanishida so'zlagan nutqlarida va rasmiy bayonotlarida .2017-yil 19-may.
- 2."Shayx Bahouddin Naqshband" Muallif Abdulaziz Manzur.2000-yil.
- 3."Bahouddin Naqshband va Naqshbandiya tariqatining rivojlanishi" Muallif Shamsiddin Suyarov -2001- yil.
- 4."Bahouddin Naqshband va uning merosi " Muallif Abdug'ani Mo'minov-2005 - yil.